


## Asosiy kapitalga investitsiyalar 2021- yil yanvar-iyun

Joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **6896,9** mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **61,7** % ni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi **609,6** mlrd. soʻm yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **8,8** % ni tashkil etdi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarning **91,2** %ni yoki **6287,3** mlrd. soʻm oʻzlashtirildi.


*mlrd. soʻm*




Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 8,8 % i yoki 609,6 mlrd. so‘mini markazlashgan investitsiyalar tashkil qildi. Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga 393,4 mlrd. so‘m investitsiyalar kiritildi va o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 6,2 % foizni tashkil qildi, Respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan 63,1 mlrd. so‘m yoki o‘tgan yilning joriy davriga nisbatan 26,4 % suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan 51,5 mlrd. so‘m o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 43,4 % ni tashkil etdi. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan 101,5 mlrd. so‘m o‘zlashtirildi.

### Markazlashgan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi, % da

2020 - yil




2021 - yil



- Respublika byudjeti
- Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish
- O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar
- Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi

## Markazlashmagan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi, % da



- Korxonalar mablag'i
- Tjorat banklari kreditlari
- Boshqa qarz mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Xorijiy investitsiya va kreditlar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 91,2 % i yoki 6287,3 mlrd. so'mini markazlashmagan investitsiyalar tashkil qildi. Shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushiga to'g'ri kelmoqda. Bunga sabab viloyatimizda xorijiy korxonalar tomonidan ko'proq investitsiyalar jalb qilinganligi bilan bog'liqdir.

Korxonalar mablag'lari hisobidan 1431,7 mlrd so'm investitsiyalar moliyalashtirilgan. Aholi mablag'lari hisobidan 746,4 mlrd so'm yoki 10,8 % ni Tjorat banklari kreditlari hisobidan jami investitsiyalarning 6,5 % i yoki 450,3 mlrd so'm investitsiyalar jalb qilindi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar**  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)


	mlrd. so ‘m	O ‘sish sur‘ati, % da	yakunga nisbatan, % da
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>6896,9</b>	<b>61,7</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>609,6</b>	<b>9,1</b>	<b>8,8</b>
➤ Byudjet mablag‘lari	63,1	26,7	0,9
➤ Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	101,5	-	1,5
➤ Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	51,5	43,4	0,7
➤ O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	393,4	6,2	5,7
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>6287,3</b>	<b>136,0</b>	<b>91,2</b>
➤ Korxonalarining o‘z mablag‘lari	1431,7	130,0	20,7
➤ Aholi mablag‘lari	746,4	98,6	10,8
➤ To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	3658,8	154,4	53,1
➤ Tijorat banklari kreditlari	450,3	116,7	6,5
➤ va boshqa qarz mablag‘lari			

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning mablagi **6287,3** mlrd. so‘m **136,0** % ni tashkil etdi. O‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxonalar va tashkilotlar mablag‘i **1431,7** mlrd. so‘m yoki investitsiyalarning **130,0** % i o‘zlashtirildi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar hududlar kesimida**  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)


	Jami		shu jumladan xorijiy investitsiya va kreditlari	
	mlrd.so'm	O'sish sura'ti, % da	mlrd. so'm	jamiga nisbatan ulushi, % da
➤ Viloyat bo'yicha:	6896,9	61,7	4052,3	58,7
<i>shaharlar:</i>				
➤ Qarshi	1233,1	221,9	715,6	17,7
➤ Shahrisabz	57,1	147,4	11,9	0,3
<i>tumanlar:</i>				
➤ G'uzor	1792,8	43,6	1030,5	25,4
➤ Dehqonobod	127,6	111,3	43,6	1,2
➤ Qamashi	68,2	80,5	12,6	0,3
➤ Qarshi	423,8	60,8	223,2	5,5
➤ Koson	122,0	106,4	19,9	0,5
➤ Kitob	388,8	90,6	192,1	4,7
➤ Mirishkor	40,5	29,3	7,8	0,2
➤ Muborak	1723,1	176,6	1372,4	33,9
➤ Nishon	158,8	4,6	79,6	2,0
➤ Kasbi	102,2	121,1	30,1	1,7
➤ Chiroqchi	144,1	106,4	-	-
➤ Shahrisabz	371,7	5 m	-	-
➤ Yakkabog'	142,9	90,3	3,3	0,1

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida Qarshi shahar, Shahrisabz shahar, Muborak, Shahrisabz tumanlarining o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning viloyatdagi ulushi **38,9** % ni tashkil qilgan bo'lsa, Nishon tumanida esa bu ko'rsatkich bo'yicha eng kam jalb etilgan investitsiya hajmiga to'g'ri keldi, ya'ni - **4,6** %.

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami mlrd. so'm	shu jumladan, ulushi % da		
		qurilish- montaj ishlari	mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jixozlari	boshqa xarajatl ar
➤ Viloyat bo'yicha:	6896,9	2582,1	3786,9	527,9
<i>shaharlar:</i>				
➤ Qarshi	1233,7	441,6	763,3	28,8
➤ Shahrisabz	57,1	27,5	17,9	11,7
➤ G'uzor	1792,8	650,4	975,2	167,2
➤ Dehqonobod	127,6	64,3	7,7	55,5
➤ Qamashi	68,3	23,8	26,5	17,8
➤ Qarshi	423,8	263,2	140,0	20,6
➤ Koson	122,0	78,0	24,3	19,7
➤ Kitob	388,8	158,8	208,1	21,8
➤ Mirishkor	40,5	11,1	15,6	13,7
➤ Muborak	1723,1	490,4	1152,5	80,2
➤ Nishon	158,8	67,1	70,2	21,5
➤ Kasbi	102,2	39,8	45,0	17,4
➤ Chiroqchi	144,1	90,7	32,5	20,8
➤ Shahrisabz	371,7	105,3	250,7	15,6
➤ Yakkabog'	50,4	70,4	56,9	15,6



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

2021- yil yanvar-iyun (jamiga nisbatan, % da)




Tog'-kon sanoati tarmog'i bo'yicha **1197,3** mlrd. so'm o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining **17,4** % ini tashkil qildi, ishlab chiqarish sanoati sohasida **671,3** mlrd. so'm investitsiya o'zlashtirilib, jami investitsiyadagi ulushi **9,7** % ni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

2021- yil yanvar-iyun oylarida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **1910,8** mlrd. so‘mi boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning hajmi jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning **27,7** % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi **2761,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, jami investitsiyalarning **40,0** % i o‘zlashtirildi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2021- yil yanvar-iyun oylarida **4052,3** mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 58,7 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.




Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar **3658,8** mlrd. so‘mni tashkil qildi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi -

53,0 %. Shuningdek, **1907,7** mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **52,1** % ni tashkil qildi.

## Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

	Xorijiy investitsiya va kreditlari (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		xorijiy investitsiya	xorijiy kreditlar
➤ <b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>4052,3</b>	<b>1751,1</b>	<b>2301,2</b>
<i>shaharlar:</i>			
➤ <b>Qarshi</b>	715,6	255,5	460,0
➤ <b>Shahrisabz</b>	11,9	3,6	8,3
<i>tumanlar:</i>			
➤ <b>G'uzor</b>	1030,5	5,2	1025,3
➤ <b>Dehqonobod</b>	43,6	41,1	2,5
➤ <b>Qamashi</b>	0,01	0,01	-
➤ <b>Qarshi</b>	223,2	199,5	23,6
➤ <b>Koson</b>	19,9	10,4	9,5
➤ <b>Kitob</b>	192,1	189,5	2,6
➤ <b>Mirishkor</b>	7,7	7,7	-
➤ <b>Muborak</b>	1372,4	928,6	440,2
➤ <b>Nishon</b>	79,7	74,7	5,0
➤ <b>Kasbi</b>	30,2	30,2	-
➤ <b>Chiroqchi</b>	11,6	-	11,6
➤ <b>Shahrisabz</b>	308,7	-	308,7
➤ <b>Yakkabog'</b>	3,9	-	3,9

**Uy-joylarni foydalanishga topshirish  
ming. kv. metr**



2021- yilning yanvar-iyun oylarida jami umumiy maydoni 379,9 ming kv.metr (2020- yilning mos davriga nisbatan 112,1 %) bo'lgan 2315 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirildi. Ulardan umumiy maydoni 236,1 ming kv.metr bo'lgan 1362 tasi qishloq joylarda foydalanishga topshirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarni xududlar kesimida solishtiradigan bo'lsak, eng ko'p Qarshi shahrida 43,0 ming kv.metr va u viloyatda ishga tushirilgan umumiy maydonning 11,3 % ini tashkil etdi. Eng kam turar joy Mirishkor tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 0 % ni tashkil etdi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: O. Bozorov**

**Aloqa telefoni: (75) 221-32-47**